

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI OSON O'RGATISH
USULLARI

Rajapova Nasiba Umar qizi

Ma'mun universiteti "O'zga tilli guruhlarda rus tili" yo'nalishi talabasi

G-mail: www.n_rajapova@internet.ru

Annotatsiya: Bu maqolada chet tilini o'rganish va o'rgatishdagi ko'p uchraydigan muammolar va ularning yechimlariga bo'yicha ba'zibir fikrlar aytib o'tilgan va yechimlari bo'yicha o'z shahsiy qarashlari qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: til o'rgatish, multfilm, kino, lug'at, yechim, yutuq, usullar, texnika, raqobat, rivojlanish.

Avvalo yosh bolalarga til o'rgatishni qancha erta boshlashsa shuncha yaxshi chunki yosh bolalarda eslab qolish yaxsi rivojlanga buladi. Keyin es ularsa keraksiz malumotlar yoki tashvishlar va muammolar bolmaydi. Bog'chada va maktabda til o'rgatish buyicha anchagina yutuqlar bor. Lekin bu yetarli emas. Kichik yoshdagi bolalar asosan korgan nars asini yoki eshitgan narsasini koproq eslab qoladi. Mening kichik ukam ham rus tilida beriladigan "Masha va ayiq" multfilmidan keyin unda aytilgan ruscha qo'shiqlarni bemalol aytadigan bo'ldi. Eng muhimi esa shu so'zlarning tarjimasini bilishga intilishidir, bu ham yaxshi usuldir. Keying usul esa rasmlar orqali tushuntirish. Ular ko'rgan narsasini ruschasini ham eslab qolishga harakat qiladi, bu ularning tarbiyachisiga ham bog'liq bo'ladi. Ular maqtovlarni juda yaxshi ko'rishadi, iloji boricha shunday gaplar tinglagisi keladi, erkanadi.

Maktab bolalari esa ulardan sal farq qiladi. Ya'ni kichik sinflarda o'rtacha 1 sinfdan 6 sinfgacha juda faol bo'lishadi. Buni o'zinning amaliyotimda ko'rganman. Ularda sinf o'rtasida va o'rtoqlari o'rtasida qisman raqobat bo'ladi. Ularda o'qituvchidan qo'rquv hissi ham hali ketmagan bo'ladi, keyin esa ishonuvchanlik. Ayniqsa 5, 6 sinflarda o'qituvchilardan maqtoov eshitish uchun jon jahtimiz bilan harakat qilardik. Rus tili o'qituvchilarimiz ham har darsda kamida 10 yoki 20 ta lug'at bergan, bu albatta kam ammo bitta matnni tarjima qilish vazifalari ham bo'lgan. Ana shu tarjimaga qiziqishimga sabab bo'ldi. Huddi men kabi boshqa o'quvchilar ham mendek kelajagiga ta'sir qilishi mumkin. Keying masala esa ota- onalar yordami bilan bo'ladi. Chunki bir taraflama ishlab bo'maydi, ota- onalar ham bunga mas'uldirlar. Ko'pchilik o'qituvchilar bu fikrimga qarshi chiqishadi ya'ni hozir ota onalar majlisi qilsak hech biri kelishmaydi, ular farzandlarining tarbiyasiga befarq deyishadi. Hozir texnika davrida yashayotgan ekanmiz internet tarmoqlarida ota-onalar guruhini yaratish zarur. Hozir bu usul eng ommalashgan usuldir. Ko'pchilik allaqachon bu usulga o'tgan. Qo'shimcha kurslar yordamida til o'rganish eng foydali usuldir.

Chunki u yerda o'quvchi soni kam o'ladi va har bir o'quvchiga etibor qaratiladi. Keyin esa bolaning bo'sh vaqtlari samarali o'tkazilishini taminlaydi.

To'g'ri maktabda ham bo'lib o'tishlar tashkil etilgan, ammo bir tarafdin vaqt muammosi ham bor. Ayniqsa katta sinflar ya'ni 7 sinflardan boshlab ular o'qituvchiga bo'ysunishni xoxlashmaydi. Bunda o'qituvchilardan qattiqqo'llik talab etilgan bo'ladi. Katta sinflarda yuqorida aytganimizdek qo'rquv hissi yo'qoladi. Katta sinflarda yunalish tanlashga to'g'ri keladi, bunda uzi tanlagan soha buyicha ketishi muhimdir. Ular orasida aynan tilni o'rganishni tanlagan o'quvchilarga maktab o'qituvchilaridan yordam zarurdir. Ya'ni til o'rganish va ularni tushunishdagi eng qisqa yo'l bu- kinolar orqali o'rganishdir. Bu ularning Ruscha aytganda razgovoriga ham katta foyda beradi. Chunki kin ova seriallarda juda oson bulgan kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan so'zlardan foydalaniladi. U so'zlarning tarjimasini eslab qolish ham osom bo'ladi. Bu sinalgan usuldir. Keyingisi agar tilni qo'shiq tinglash orqali o'rganaman deydigan o'quvchilarga buni tafsiya etmayman, chunki qo'shiqlarda asosan tasviriy ifodalardan foydalaniladi, so'z ko'pincha o'z manosida ishlatilmaydi. Ko'proq adabiy usuldan foydalaniladi. Shuning uchun ham bu usul ommalshmagan. Ammo bu degani umuman foydasiz degani emas, bazida bu so'zlarni to'g'ri talaffuz etishda samarasini berishi mumkin.

Bu usullar faqat gapira olish qobiliyatinigina oshirishga yordam beradi, ammo to'g'ri yozish qoidalari ham til o'rganish uchun muhimdir. Shu til bo'yicha yozilgan badiiy kitoblatni o'qish mana shu so'zlarni yozilishini o'rganishga va eslab qolishga yordam beradi. Orfografiya qoidalarini o'rganish juda muhimdir. O'rangan so'zlarni amaliyotda qo'llash ham til o'rganish uchun eng qisqa usuldir. Til o'rganish qisqa vaqtli ish emas, bunga yillar kerak bo'ladi ko'pincha. Ko'chadagi yozilgan afishalardagi yozuvlar esa hammasi shunchaki safsata. Agar shu til buyicha tajribang bo'sa balki bu qisqa vaqtli o'rgatish ham foyda berishi mumkin. Ya'ni afishalarda chet tili 3 oyda yoki 6 oyda deb yozilgan bo'ladi. Bu darajada qisqa vaqt ichida biror tilni o'rganish deyarli imkonsizdir. Agar imkoni bo'ganida odamlar yillab vaqtini til o'rganishga sarflamas edilar deb o'ylayman. Qiyin bo'sa demak natijasi yaxshi bo'ladi. Bir tilde gapirib ketaman deganicha insonda avvalo lug'at boyligi keyin esa grammatik ma'lumotlar bazasi bo'lishi kerak. Testlarni ishlash ham samarali usuldir. Asosan onlayn testlarni ishlash kerak, chunki u yerda xato javobn belgilasa nimaga xato ekanligi va to'g'ri javob darrov chiqib keladi. Bir maarta xato javob belgilasangix ikkinchi marta bu ishni qilmaslikka harakat qilasiz. Bu esa shu qoidani eslab qolishga yordam beradi.

Men yuqorida aytib o'tgan usullarim nafaqat kichik yoshdagilar balki katta yoshdagilar uchun ham foydalidir. Til urganish uchun qulay vaqtlar esa asosan tong vaqti va tunning 3 qismidir va ertalab ham inson tetik buladi. Tungi soat 4 dan 6 gacha vaqt orasida inson miyasi 100% gacha faol ishlaydi va eslab qolish osonlashadi. Soat 6 dan 9 gacha vaqt oralog'ida inson miyasi 75% gacha faol ishlab bera oladi. Bu ham juda muhimdir. Til o'rganish uchun inson muayyan vaqtni tanlashi kerak va hu vaqtda dars qilishi zarur. Chunki vaqt o'tib inson miyasi ma'lum bir vaqtga moslashadi va hu vaqtsa uyg'onish agar ertalab bo'lsa yoki shu vaqtda malumot qabul qilishga moslashadi. Bu bilan birgalikda siz kun tartibingizni yaxshilagan bo'lasiz. Inson biror narsani urganmqchi bo'sa xususan tilni, bunda u kunda oz bo'sada o'rganishi zarur, ammo harakatdan to'xtab qolmasligi mumkin. Bu ozdan o'rganish birinchidan miyyani charchatib qo'ymaydi va insonno zeriktirmaydi.

Xulosa: Bu maqolada aytmoqchi bo'lganlarim shular edi. Til o'rganishdagi qisqa metodikalar, maktabdagi ba'zi muammolar va til o'rganishdagi qiyimnchiliklar. Bu yullar o'zinning tajribamdan kelib chiqqan xolda edi. Yana kimdadir umuman boshqacha metodikalar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1 Jalilov. J. chet tilini o'qitish metodikasi, Toshkent.2012
- 2 Zaripov R.A. O'zbek maktablarida chet tilini o'qitish metodikalarining asosiy yo'nalishlari, O'qituvchi- 1979.
3. Jumayeva, M. B., & Yusupov, O. Y. (2023). USING DIFFERENT GAMES AND SONGS IN TEACHING ENGLISH TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 107-111.
4. Khayrullayevna, K. G. (2023, November). THE ROLE OF CONTEXT IN THE COMMUNICATION. In Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium) (Vol. 2, pp. 6-9).
5. Khasanova, G. (2021, December). THE EFFECT OF MIMICS AND VISION IN TEACHER-STUDENT COMMUNICATION. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 61-64).
6. Khasanova, G. (2023). Some Considerations on Nonverbal Communication (No. 11076). EasyChair.
7. Eun, P. S., Kh, M. G., & Xasanova, G. (2023). The Role and Classification of Parenthesis in Literature. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 324-328.
8. Khasanova, G. K. (2020). SOME COMMENTS ABOUT THE COMMUNICATIVE PROCESS OF THE TEXT. Theoretical & Applied Science, (9), 313-315.